

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN
HUJJATLARINING POZITSIYASI.**

O‘rinboyev Ulug‘bek O‘rolboy o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0002-5015-0731

Telefon: +998993410742

E-mail: orinboyevu1@gmail.com

Уринбоев Улугбек Уролбой углы

Докторант (PhD) Гулистанского

государственного педагогического института

ORCID: 0000-0002-5015-0731

Телефон: +998 99 341 07 42

E-mail: orinboyevu1@gmail.com

O‘rinboyev Ulug‘bek O‘rolboy o‘g‘li

Doctoral Researcher (PhD Candidate)

Gulistan State Pedagogical Institute

ORCID: 0000-0002-5015-0731

Phone: +998 99 341 07 42

E-mail: orinboyevu1@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola davlat xizmati sohasidagi milliy qonunchilik va uni tartibga soladigan normativ huquqiy hujjatlarni, o‘quvchi yoshlarni davlat xizmatini o‘tashga tayyorlashni o‘rgatuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning vazifalari – o‘quvchilar va pedagoglarga davlat xizmati mavzusining mohiyatini anglashga yordam berish, talabaning mustaqil ta‘lim olishiga ko‘maklashishdan iborat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются национальное законодательство в сфере государственной службы, а также нормативно-правовые акты, регулирующие данную область, как один из инструментов подготовки обучающейся молодежи к прохождению государственной службы. Целью статьи является содействие учащимся и педагогам в осмыслении сущности темы государственной службы, а также оказание методической поддержки студентам в организации их самостоятельной образовательной деятельности.*

Abstract: *This article examines the national legislation in the field of public service, as well as the regulatory legal acts governing this sphere, as one of the key tools for preparing students for public service. The objective of the article is to assist learners and educators in*

understanding the essence of public service and to provide methodological support for students in organizing their independent learning activities.

Kalit so‘zlar: *Davlat xizmati, davlat organlari, ijtimoiy ta’minot, adolat, ochiqlik, shaffoflik, majburiyat, huquqiy oqibat, ommaviy huquqiy munosabat, maxsus davlat xizmati, xalqaro hamkorlik, malaka talablari, raqobatbardosh xizmat, isnisno qilingan xizmat, yakka mehnat nizolari, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi*

Ключевые слова: *государственная служба, государственные органы, социальное обеспечение, справедливость, открытость, прозрачность, обязательство, правовые последствия, публично-правовые отношения, специальная государственная служба, международное сотрудничество, квалификационные требования, конкурентоспособная служба, служба, выведенная из общего порядка регулирования (исключительная служба), индивидуальные трудовые споры, профессиональная компетенция государственного гражданского служащего.*

Keywords: *public service, state bodies, social protection, justice, openness, transparency, obligation, legal consequences, public law relations, special public service, international cooperation, qualification requirements, competitive service, exempted service, individual labor disputes, professional competence of a public civil servant.*

Kirish (Introduction)

O‘zbekiston siyosiy yuksalishining hozirgi bosqichidagi davlat xizmati sohasidagi qonunchilik, mehnat munosabatlari shaxs va fuqaro uchun huquqiy qulayligi va xavfsizligi bo‘yicha konstitutsiyaviy me‘yorlarga, qonun samaradorligiga va davlat boshqaruvining odilligiga to‘la mos bo‘lishi kerak. Bu davlat xizmatchilari dunyo qarashining sifat o‘zgarishini, harakatlarining yangicha qiyofa aks etishini, taribga solishning ma‘muriy-huquqiy usullari va vositalarini, demak ularni yangicha nuqtai nazardan va ommaviy huquqiy munosabatlarning zaif tomoni manfaatlari nuqtai nazaridan o‘rganish ahamiyatini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini huquqiy tartibga solish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, kompleks ravishda turli qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solingan. Jumladan, davlat xizmati sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, ma‘muriy, moliya, mehnat va boshqa maxsus qonunchilik sohalari bilan huquqiy tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini tashkil etish asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi belgilab bersa, uni amalga oshirish esa davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi. Lekin

shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, yaqin vaqtga qadar davlat xizmati to‘g‘risida alohida qonun qabul qilinmagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillastirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra “**Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida**”gi Qonun qabul qilinishi nazarda tutilgan edi[1].

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmati sohasini yagona qonunchilik asosida tartibga solish, davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash, ularning ijtimoiy himoyasi va davlat xizmatini olib borishning asosiy prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan salkam o‘ttiz yildan buyon qabul qilinishi kutilgan tarixiy qonun qabul qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Davlat xizmatiga doir adabiyotlarni tahlil qilishda Nazarov. Sh.N ning “Davlat fuqarolik xizmati” nomli o‘quv qo‘llanmasi alohida ahamiyatga molik.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada davlat fuqarolik xizmati moduli doirasida davlat fuqarolik xizmatining mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari keng yoritilgan. Unda davlat fuqarolik xizmati tizimida davlat boshqaruvining o‘rni, davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi, uning huquq va majburiyatlari, shuningdek mazkur sohada korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari tahlil etilgan.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslari, ushbu xizmatga qabul qilish tartibi va talablari, xizmatni o‘tash jarayoni hamda davlat fuqarolik xizmatchilarini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish masalalari bayon qilingan. Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatchilarining javobgarligi, xizmat munosabatlari doirasida yuzaga keladigan nizolarni ko‘rib chiqish tartibi va ularning faoliyatini tugatish asoslari ham atroflicha yoritib berilgan[2].

Undan tashqari Yusupov S.B., Isayeva F.B larning ham “Davlat xizmati” nomli o‘quv qo‘llanmasi ham ushbu mavzuni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘llanmada davlat xizmatining huquqiy poydevori, asosiy tamoyillari, vazifa va funksiyalari, shuningdek davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi keng yoritilgan. Shu bilan birga, davlat xizmatiga qabul qilish jarayoni, xizmatni o‘tash bosqichlari, attestatsiya, lavozim bo‘yicha o‘sish, rotatsiya, rag‘batlantirish choralari qo‘llash, intizomiy va boshqa turdagi javobgarlik masalalari hamda xizmatni tugatish asoslari tizimli tarzda bayon etilgan[3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

Mazkur maqolada davlat xizmati institutining huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy jihatlarini kompleks o‘rganish maqsadida tizimli va ko‘p bosqichli metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va qiyosiy tahlil usullarining uyg‘unligiga asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini davlat boshqaruvi nazariyasi, ijtimoiy davlat konsepsiyasi, huquqiy davlat tamoyillari hamda zamonaviy davlat xizmati modellari tashkil etadi. Ilmiy bilishning dialektik yondashuvi asosida davlat xizmati tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari o‘zaro bog‘liqlik va izchillikda tahlil qilindi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan bo‘lib Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 2-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 28-mayda ma‘qullangan. Ushbu qonun 10 ta bob 64 ta moddadan iborat. Ushbu Qonunning maqsadi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining ushbu Qonun bilan tartibga solinmagan mehnatga oid munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Ushbu Qonunning amal qilishi Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi. Shuni alohida takidlash lozimki ushbu qonunga muvofiq davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Ushbu qonunga muvofiq davlat xizmati sohasida vakolatli organ etib, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi belgilangan[4].

Ushbu Qonunning amal qilishi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senati a‘zolarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a‘zolarining, sudyalarning va sud tizimi xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi a‘zolarining, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o‘tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan harbiy xizmatchilarning, davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi[5]. Chunki maxsus davlat xizmatida xizmatni o‘tash, xizmatga qabul qilinish va xizmatdan bo‘shatilish asoslarini sohaviy harakterga ega qonunlar orqali tartibga solinadi.

Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunning 24 va 43 moddalari diplomatiya xizmati xodimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunning 43-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi[6]:

davlat organi — davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma;

davlat fuqarolik xizmati — davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta‘minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi;

davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi — davlat organining vakolatlarini lozim darajada amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar majmui;

davlat fuqarolik xizmati lavozimi — davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozim;

davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari — davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart bo‘lgan odob-axloq normalari majmui;

malaka talablari — davlat fuqarolik xizmatining muayyan malaka darajasi berilishi va (yoki) davlat fuqarolik xizmatining muayyan lavozimini egallash uchun talabgor bo‘layotgan nomzodlarga nisbatan davlat organi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.

Yuqoridagi asosiy tushunchalar davlat xizmati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Mazkur asosiy tushunchalarda davlat xizmati va davlat fuqarolik xizmatchilarining aniq maqomi, ularga qo‘yilgan talablar, ushbu soha subektlariga konkret ta‘riflar keltirilgan.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari

Barcha huquq sohaslarining o‘z prinsiplari mavjud ular o‘z navbatida ushbu huquq sohaslarini tartibga solish, ularning mohiyatini ochib beruvchi asosiy mehanizmlardan biri hisoblanadi. Prinsiplar huquq shakllanishida yo‘nalish beruvchi mayoq, mezon vazifasini bajaradi. Davlat xizmati sohasida ham ana shunday mezonlar Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunda ham keltirib o‘tilgan. Ushbu prinsiplar davlat xizmatiga qabul qilinish, xizmatni o‘tash va xizmatdan bo‘shatilish bilan bog‘liq masalalarni yechishda qonuniy asos hisoblanadi. Jumladan davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi - davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish va uni nazorat qilishning yagona qonunchilik bilan tartibga solinishi hamda vakolatli organ tomonidan boshqaruvning olib borilishi;

qonuniylik – davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatida Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga so‘zsiz va qat’iy amal qilinishi;

adolatlilik – davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinish va uni o‘tash jarayonida odillik me‘yorlariga qat’iy amal qilish;

xalqqa xizmat qilish – davlat fuqarolik xizmatining asosiy mazmuni bo‘lib, xar qanday holatda ham xalqning roziligiga erishish;

davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas‘ulligi – barcha darajadagi davlat fuqarolik xizmatchilari va maxsus xizmat xodimlari, birinchi navbatda jamiyat va fuqarolar oldida xisobdorligi;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi – xar qanday holatda ham davlat fuqarolik xizmati inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustunligini ta‘minlashi shart.

ochiqlik va shaffoflik – davlat fuqarolik xizmati barcha uchun ochiq va shaffof faoliyat yuritishi va ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishi;

xolislik, professionallik va kompetentlik – davlat fuqarolik xizmati holis bo‘lishi, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablari;

davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi – davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanishi

davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi – davlat fuqarolik xizmatchilarining hayoti va sog‘ligi, uning mol-mulkini majburiy sug‘urta qilish, hayoti va sog‘ligi, uning mol-mulkiga yetkazilgan zararni davlat tomonidan o‘rnini qoplash.

Yuqoridagi ushbu prinsiplar davlat xizmatini o‘tash, xizmatga qabul qilinish va davlat xizmatidan bo‘shatilish jarayonlarini to‘liq qonuniy va tartibli olib borilishini ta‘minlaydi. Davlat xizmati sohasidagi ijtimoiy munosabatlar ushbu prinsiplarga zid bo‘lishi yoki unga nomuvofiq bo‘lishi mumkin emas.

Davlat fuqarolik xizmatchisi - Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisidir. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e‘tiboran davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomiga ega bo‘ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo‘qotadi[7].

Ushbu qonun bilan birinchi marta davlat fuqarolik xizmatchisiga qonuniy rasmiy ta’rif berildi. Unga muvofiq davlat organida belgilangan shtatdagi lavozim egallanishi bilan davlat xizmati boshlanadi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha huquqlar, majburiyatlar va cheklovlar alohida qonunchilik bilan belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat[8]:

davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmasligi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining odo-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, ularga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat o‘tkazilishini ta’minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash tizimini joriy etish;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg‘alar olish va berish tartibini belgilash;

davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minlash.

Qonunchilikda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisi korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi va korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarning (harakatsizlikning) oldini olishi shart. Agar davlat fuqarolik xizmatchisi korrupsiya faktlari to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lsa, u korrupsiyaning oldini olish uchun zarur choralar ko‘rishi, shu jumladan yuqori turuvchi davlat organini (mansabdor shaxsini) yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organini darhol xabar qilishi yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat etishi kerak.

Korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar bergan davlat fuqarolik xizmatchisiga qonunchilikda belgilangan tartibda davlat himoyasi ta’minlanadi[8].

Davlat fuqarolik xizmati tizimi - bu davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan tarzda tanlab olish, hisobga olish, joy-joyiga qo‘yish, ularning mehnatiga haq to‘lash, kasbiy kompetensiyasini oshirish va xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarish mexanizmlarining yagona tashkiliy-huquqiy majmuidir[9].

Belgilangan malaka talablariga muvofiq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat fuqarolik xizmatiga kirish uchun teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun kasbiy kompetensiyasini shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchisini qayta tayyorlashni, uning malakasini oshirishni, ta'lim olishini tashkil etish hisobidan ta'minlanadi. Davlat fuqarolik xizmatchisini tegishli ravishda rag'batlantirish va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarish uning kasbiy kompetensiyalarini hamda alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida ta'minlanadi[10].

Maxsus davlat xizmatining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida mudofaa ishlari, ichki ishlar, O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi, prokuratura, favqulodda vaziyatlar, davlat bojxona xizmati, davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xavfsizlik xizmatida xizmatni o'tash, xizmatga qabul qilish, xizmatdan bo'shatish, xizmatchilarni ijtimoiy himoyasi, xizmatchilarning huquqiy maqomi tegishliligi bo'yicha maxsus qonunlar bilan tartibga solingan.

Jumladan mudofaa ishlari sohasida xizmatni o'tash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida" Nizomga[11] muvofiq tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida xizmatni o'tash 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son, O'zbekiston Respublikasi Qonuni[12] bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xizmatni o'tash 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647-son, O'zbekiston Respublikasi Qonuni[13] bilan tartibga solinadi.

Prokuratura organlarida xizmatni o'tash 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi O'RQ-257-II-son, O'zbekiston Respublikasi Qonuni[14] bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligida xizmatni o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PQ-4276-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida"gi Nizom[15] bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatida xizmatni o'tash 2018-yil 18-oktabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni[16] bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatida xizmatni o'tash 2018-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni[17] bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xavfsizlik xizmatida xizmatni o‘tash 2021-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-700-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni [18] bilan tartibga solinadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations)

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Yangi O‘zbekistonda davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashda davlat fuqarolik xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda davlat xizmatchilari birlamchi subyektlar hisoblanadi. Ushbu sohani takomillashtirish uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sohani rivojlantirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlat fuqarolik xizmatining davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch muvozanatini mustahkamlashda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanishni taklif etamiz.

Birinchida, davlat fuqarolik xizmatchilarining ma‘naviy imidjini yaratish kerak, bu bizga davlat xizmatida shaffoflik va adolatni ta‘minlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, davlat xizmatchilari faoliyatini davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi birlamchi omil deb qarash. Bu bizga yurtboshimiz ta‘kidlaganidek islohotlarni amalga oshirishda xalqimizni rozi qilishga yordam beradi.

Uchunchidan, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashda davlat fuqarolik xizmatchilarining KPI eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlariga fuqarolar tomonidan berilgan munosabat (feedback)ni kiritish kerak. Bu bizga xar bir davlat xizmatchisining faoliyatida uning xalq bilan bevosita muloqotini baholash va rag‘batlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

O‘quv adabiyotlar

1. Ma‘muriy huquq va protsess: darslik / B.Musayev, D.Artikov, B.Qosimov -T.: TDYU nashriyoti, 2021.- 172 bet
2. Ma‘muriy huquq: Darslik: to‘ldirilgan 4-nashr / O‘.X.Muxamedov, I.A.Xamedov, N.T.Ismailov va boshq; - T.; O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.
3. Ma‘muriy huquq: darslik / E.T.Hojiyev –T.: ILM ZIYO-2012.-512 bet
4. Ma‘muriy huquq: Darslik / X.T. Odilqoriyev, I.Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. X.T. Odilqoriyev va B.E.Qosimovning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010.
5. Xojiyev E., Xojiyev T. Ma‘muriy huquq / Mas‘ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambayev. – T., 2006.

6. Xamedov I.A., Xvan L.B., Say I.M. Administrativnoye pravo Respublik Uzbekistan
Общая часть. Учебник. –Т.: Konsauditinform-Nashr, 2012.

7. Давлат хизмати: ўқув қўлланма/ Е.Т.Хоҗиёев, G.S.Ismailova, М. А. Рахимов.-
Т.:Бактрия Пресс, 2015.–173 бет

8. Davlat fuqarolik xizmati: o‘quv qo‘llanma / Nazarov Shavkat Nazarovich.-Т.: TDYU
nashriyoti, 2025.-132 b.

9. Yusupov S.B., Isayeva G.B. Davlat xizmati : o‘quv qo‘llanma.–Toshkent : Toshkent
davlat yuridik universiteti, 2022. – 160 b.

Normativ huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T. “O‘zbekiston” 2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida Kodeksi.
25.01.2018 Manba: O‘R QHMB 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” 08.08.2022
yildagi O‘RQ-788-son

4. O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonuni 15.06.2010 yildagi
O‘RQ-252-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni №
O‘RQ 457-son 08.01.2018 y. QHMMB, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqligi
to‘g‘risida”gi Qonuni № 369 son 05.05.2014 y.

7. O‘zbekiston Respublikasi “Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash to‘g‘risida”gi
Qonuni № 71 II-son 25.05.2000 y.

8. “Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”
O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 29.08.1998 yildagi 670-I-son.

9. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017
yildagi O‘RQ-419-son, Qonuni.

10. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida” O‘zbekiston
Respublikasining Qonuni, 10.12.2019 yildagi O‘RQ-591-son